

MUSIQA VA HAYOT

(Talabalar nigohida)

Xolbekov Mingjigit Anvarovich

JDPI Vokal va cholg'u ijrochiligi kafedrası o'qituvchisi

Mavlonova Aziza Islom qizi

Musiqa madaniyati fakulteti Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Odamzod yaralibdiki musiqa bilan birga, u bilan hamnafas. Bugungi kunda musiqa barcha sohalarga kirib bordi va alohida bilim sifatida hali - hamon o'rganib kelinmoqda. Qadimgi davrlarda Aristotel, Platon, Pifagor kabi faylasuflar bu sohasini tadqiq etganlar, hamda o'z fikrlarini bayon qilishgan. Sharqda: Farobiy, Ibn Sino, A.Navoiy, Jomiy kabi allomalarimiz ham musiqa sohasida ilmiy izlanishlar olib borishgan bo'lsa, G'arbda: F.Nitshe, Gyote kabi faylasuflar musiqaga o'z munosabatini bildirib o'tganlar. Musiqa sohasining eng buyuk namoyondalari deganda ko'z oldimizga Bax, Betxoven, Motsart, Vivaldi, Chaykovskiy, Shopen, Shubert kabi siymolar keladi ularning musiqa haqida bildirgan fikrlari bugungi kunda shu sohaga qiziquvchilarga muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilmoqda. Har bir insonning ma'lum bir yo'nalish haqida bildirgan fikrlari uning bilimlari, tajribalari, dunyoqarashi va xarakteridan agar ijodkor bo'lsa yo'nalishidan, chaladigan sozidan kelib chiqib shakllanadi. Ushbu maqolada Musiqa madaniyati fakulteti Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi 2-bosqich talabalarining musiqa haqida qarashlari va izohi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, tuyg'u, ne'mat, hayot, izoh, ummon, transport, dard, qayg'u, ijod, tarif.

“Musiqa - inson his-tuyg'ularining yozuvdagi ko'rinishi”

Har bir kompozitor asar yaratayotganda o'zining ichki his-tuyg'ularini, ya'ni quvonchini, shodligini, dard-u g'amini notaga tushirib kuy yaratadi.

Amirova Muattar

"Musiqqa - xayr-ehson qiluvchining xushbo'y guli".

Musiqqa butun dunyoni ilhomlantiradi, qalbni qanot bilan ta'minlaydi, hayol parvozigga yordam beradi; musiqqa mavjud bo'lganlarning barchasiga hayot va zavq bag'ishlaydi Buni hamma go'zal va hamma narsaning go'zal timsoli deb atash mumkin. Shuning uchun musiqiy ta'lim juda muhimdir, chunki u ritm va uyg'unlik orqali qalbgga iloji boricha chuqur kirib borishi, uni go'zallik bilan to'ldirishi va odamda go'zallik hissi yaratishi mumkin.

Saitmuratova Shahzoda

"Musiqqa bilan hayot yana ham go'zaldir"

Hayotimizda musiqqa juda ko'p uchraydi g'amgin holimizda mayus og'ir musiqalarni tinglaymiz go'yoki faqat musiqqa bizni tushunayotgandek, dardimizga darmon bo'layotgandek tuyulaveradi. Xursandchiligimizda ham sho'x shodon musiqalar tinglaymiz, to'yu tomosholarimiz ham musiqasiz o'tmaydi albatta. Shu birgina musiqqa odamni hayolot dunyosiga cho'mishiga undaydi. Birgina musiqqa bir necha yillik xotiralarni yodga solishi mumkin.

Mahfuza Bahadirovna

"Ba'zan musiqani ifodalashda changning 72 ta simlari ham kamlik qiladi"

Musiqqa shunday ilohiy ne'matki unga tarif berishda so'zlarimiz ham ojizlik qiladi. Musiqani eng avvalo qalb bilan his etmoq kerak.

Jo'rayeva Madina

"Musiqqa yomg'ir kabi yurakka tomchi- tomchi singib, uni kuchga to'ldiradi"

Biz musiqqa bilan tug'ulgandan boshlab hayotimiz davomida ham va umrimizning oxirigacha birga bo'lamiz. Musiqqa ilk marotaba qulog'imizga aytilgan azondir. Inson hayoti davomida o'z-o'zini musiqqa bilan tarbiyalashi mumkin.

Abdug'aniyeva Mohiniso

“Musiqqa uni his qilgan inson uchun san'atdir, undan foydalangan inson uchun sanoatdir”

Inson his-tuyg'ularinining dutor asbobi ovozi aks sadosi mavjud emas

Musiqqa o'tmish bugun va kelajakni bog'lovchi vositadir. Musiqani eshitayapsanmi demak tiriksan, uni his qilayapsanmi demak insonsan. Inson nafas olmay yashay olmagani kabi, san'at ham bu hayotda musiqasiz bo'lmaydi. Inson ruhiyatini eng kuchli davolovchi vosita - musiqadir.

Sayfiddinova Maftuna Dilshod qizi

“Musiqqa - bu ijodkorning insonlarga ayta olmagan va aytmoqchi bo'lgan so'zlaridir”

“Musiqqa - bu qalb tili. U insonning o'z ichki dunyosini yaqqol namoyon qiladi”

“Musiqqa - bu xotiraslar ko'chasiga eltuvchi transportdir go'yo”

Albatta qalbdagi so'zlarni hammasini ham oshkora ayta olmaymiz. Xatto eng yaqinlarimizga ham, shunday paytda har bir ijodkor o'zi bilgan uslub bilan qalbdagi so'zlarini oshkor qilish harakatida bo'ladi shoir o'zining she'rlarida, rassom esa o'zining rasmida, sozanda esa o'z musiqasida o'z so'zlarini ko'zga qilib ko'rsatadi. Bunda u qandaydir yengillikni his qiladi. To'g'ri bu qilgan ishi uning mumammosini hal qila olmasligi mumkin ammo bunday paytda ijodkorning qalbiga taskin bermay qolmaydi. Men bir oddiy sozandaman musiqadagi bilgan haqiqatlarimdan biri :musiqqa - xotiralarni ko'chasiga eltuvchi transport ekanligidir. Musiqani ijro etayotganimda bir ajib holatga tushib qolaman unda faqat men va mening dunyoyim bor. Musiqaning ladi, o'lchovi, tempiga qarab mening dunyoyim ham tuslanib turadi. Shoh kuychan kuylarda yoshligim esimga tushsa, og'ir vazmin ruhdagi kuylar bilan men tamoman boshqa dunyoda paydo bo'laman. Gaplarimni shunday tugatgim keldi..) Men bir oddiy sozandaman:

Mavlonova Aziza

"Musiqqa shunday narsa u inson ongini boshqarishga qodir"

Men musiqqa olamiga sayohat qilsam ruhiy hotirjamlikka ega bo'laman. Chunki musiqalar turli xil yaratiladi. Ba'zi bir musiqalar odamni tushkun holatdan olib chiqib odamga motivatsiya bera oladi, yoki aksincha quvnoq odamni ruhiyatini tushirishi va xotiralarini esga solishi mumkin. Har bir odam o'z kayfiyatiga qarab musiqqa eshitadi. Chet elda odamdagi ruhiy kasalliklarni musiqqa bilan davolaydigan olimlar ham mavjud. Shunday ekan musiqqa inson bilan chambarchas bog'liq. Tabiat ham xuddi musiqqa bilan bog'liq. Suvlar ovozi, yomg'ir yog'ayotgan vaqtdagi ovoz, qushlarning ovozi, shamolning ovozi bular sokin musiqalar qatoriga kiradi.

Ismoilova Zahro

"Musiqqa - bu cheksiz ummon"

Uning mavj urib to'lqinlanishi bu uning hursandchiligi. Sokinlik bilan to'lqinlanishi esa g'amga botishi. Bir maromda to'lqinlanishi musiqaning ritmi. Uning quyosh nurlaridan bahramand bo'lishi esa unga bo'lgan eng go'zal hurmatimizni ifodalaydi.

Begmatova Muhlis

"Musiqqa - bu ma'naviy va hissiy hayot o'rtasidagi vositachi"

Musiqqa odatda ular o'ylaganidan ko'proq odamning axloqiy xatti-harakatlari bilan bog'liq. Men hayotimni musiqasiz tasavvur qila olmayman. Musiqqa hamma narsadir. Do'stlar va ota onalar sizni tushunmasliklari mumkin, lekin musiqqa har doim siz bilan yuragingizda bo'ladi va tushunadi.

Nuriddinova Muxlisaxon

"Musiqqa abadiylikka asosiy da'vogar"

Musiqqa azal-azaldan yashab kelmoqda va bundan keyin ham yashaydi. Uning yo'llari bardavomdir. Davrlar aro u turli yo'nalishlarda, turli xil bo'lsada u tugamaydi.

Fayzullayeva Zahro

“Hayot yo'llarini nota yo'llariga bog'lagan inson - haqiqiy musiqachidir”

Hayotda har kimning o'z yo'li bo'ladi. Musiqachining yo'li nota yo'llariga batamom bog'langandagina, uni haqiqiy musiqachi deb tan olish mumkin.

Qobil Mustafoqulov

“Musiqqa harflarsiz ifodalangan mazmun”

Har bir asarni ijodkorlar insonlarga mazmunini yozib bayon etishadi. lekin musiqqa harflarsiz ifodalanadi. Eshituvchini turfa xil hayolatlarga chulg'aydi

Nurullayev Muhammad

“Mukammal musiqani yaratish uchun barcha musiqqa asboblardan chiqadigan ovozlari ham kamlik qiladi”

Mukammal musiqani yaratish mumkin ammo bu musiqani faqat ijodkorning o'zi tushunadi. Har bir ijodkor musiqqa yaratganda uning mukammal qilib yaratishga xarakter qiladi va buning uchun birgina musiqqa asbobi kamlik qiladi uni mukammal holatga keltirish uchun dunyoning barcha musiqqa asboblariidan foydalanish ham mumkin lekin bu ham mukammal musiqani ifodalashda kamlik qiladi. Chunki musiqqa uni yaratgan insonning hayoliy dunyosidan chiqqan bir kichik olamga o'xshaydi uni faqat ijodkor tushunadi, hayolot olami cheksiz imkoniyatga ega va hech kimda bir xil bo'lib qolmaydi.

Abdalimov Navruz

Xulosa o'rnida musiqqa davlatni dunyoga tanitishda, yoshlarni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda, dunyoqarashni va ularda estetik didni shakllantirishda muhim vosita sifatida rol o'ynaydi. Shu sabab musiqqa bo'lgan e'tibor u bilan bog'liq fanlarni o'qitish bugungi kunda yangi bosqichga ko'tarilmoqda va bu kelajakda o'z samarasini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Галущенко И.Г. История музыки народов мира. Вып.3. Т., “Музыка”. 2008.
2. История зарубежной музыки. Выпуск 1-6, М.-СПб., 1986-2001. I т.-535 б., II т. –277 б., III т. – 533 б., IV т. – 529 б., V т. – 448 б.
3. История русской музыки. Выпуск 1-4, М., 1981-1987. I т.-623 б., II т.-580 б., III т.-486 б., IV т.-525 б.
- 4 Mirziyoyev SH.M.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.-488 b.
- 5 Mirziyoyev SH.M.Erkin va farovon, Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatasining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.-32 b.
- 6 Mirziyoyev SH.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini takomilash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017.-32 b.
- 7 Грубер Р. История музыкальной культуры. т. 1-2, М., 1941-1953.-873 б.
- 8 Музыкальная эстетика Западноевропейского средневековья и Возрождения. М., 1965.-546 б.
- 9 Музыкальная эстетика Западной Европы XVII-XVIII вв. М., 1971.-534 с.
- 10 Музыкальная эстетика стран Востока. М., 1967.-437 б.
- 11 Музыкальная эстетика Германии XIX в. т. 1-2, М., 1983.-287 б.
9. Теоретические наблюдения над историей музыки. М., 1987.-295 б.
10. Очерки по истории зарубежной музыки. М., 1983.